



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2022 - yil 16 - iyun

VI-49-110-8-109-K/22

Angor tuman hokimligi

Tumandagi ayrim mahalla nomlarini o'zgartirish va tasdiqlash to'g'risida

“Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta'minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Angor tumani Kengashi **qaror qiladi:**

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo'yicha Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o'tkazish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli eksperti xulosasi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o'zgarayotgan mahalla va aholi punktlari nomlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo'limi (A.Xudoyorov), tuman qurilish bo'limi (B.Usmonov), Davlat kadastrlar palatasi Angor tumani filiali (E.Mengliyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o'zgartirilgan hamda tasdiqlangan mahalla, ko'chalar, qabristonlar, istirohat bog'i hamda ziyoratgohlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish bilan bog'liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo'limi (S.Choriyev) nomlari o'zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallalar va ko'chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan belgilariga tegishli o'zgartirishlar

kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (B.Usmonov) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta‘minlasin.

6. Tuman mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi (Sh.Mirzayev)ga mahalla fuqarolar yig‘inlari rahbar-xodimlari bilan bir oy muddatda Qonun talablari asosida nomlari tasdiqlangan, o‘zgartirilgan mahalla va aholi punktlarini xatlab chiqilishini;

nomlari tasdiqlangan mahalla va aholi punktlariga belgilangan tartibda ko‘rsatkich belgi va peshlavhalarni o‘rnatilishini ta‘minlash vazifasi yuklatilsin.

7. Mazkur qaror tuman hokimligi axborot xizmati hamda “Angor yog‘dusi” gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga rasman e‘lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Qodirova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (Yu.Xalimov) zimmalariga yuklatilsin.

9. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV

Xalq deputatlari Angor tuman
Kengashining
2022 yil 16 iyundagi
VI-49-110-8-109-K/22-son qaroriga
1-ilova

**Surxondaryo viloyati Angor tumandagi mahalla nomlarini o'zgartirish va
tasdiqlash to'g'risidagi takliflar**

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o'рни	Geografik obyektning amaldagi nomi	Tuman va viloyat komissiyasi tomonidan berilgan takliflar	Ekspertiza xulosasi
1.	Mahalla	Angor tumani	Chinor	1.Kayran 2.Soyli 3.Majnuntol	Kayran
2.	Mahalla	Angor tumani	Ziyolilar	1.Do'stlik 2.Istiqbol 3.Hidoyat	Do'stlik
3.	Mahalla	Angor tumani	Mohitabon	1.Yuqori Tallimaron 2.Xandakli 3.Poliz	Yuqori Tallimaron
4.	Mahalla	Angor tumani	Kamolot sari	1.Navbahor 2.Quyoshli 3.Oftob	Navbahor
5.	Mahalla	Angor tumani	Gilambob	1.Zang Gilambob 2.Kanalbo'yi 3.Uchariq	Zang Gilambob
6.	Mahalla	Angor tumani	To'maris	1.Qadimiy Angor 2.Oftobli 3.Barkamol	Qadimiy Angor
7.	Mahalla	Angor tumani	Gilambob-1	1.Galambob 2.Quyoshli 3.Bog'ishamol	Galambob
8.	Mahalla	Angor tumani	Dehqonittifoq	1.Yangihayot 2.Istiqloq 3.Nurobod	Yangihayot
9.	Mahalla	Angor tumani	Dehqonbirlashuv	1. Qoraqir 2.Bodomzor 3.Gulzor	Qoraqir